

## TURLI TEMPERAMENT EGALARINING TIL O'RGANISH JARAYONIDAGI FARQLARI

**Akramova Shaxribonu Ixtiyor qizi**

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Bu maqola temperament turlari va turli temperament egalarining til o'rganish jarayonidagi farqlari haqida ma'lumot beradi. Turli temperament egalari uchun munosib bo'lgan til o'rganish metodlari hamda ularning samarasi va qaysi turdagi temperament egasi uchun til o'rganish jarayoni oson va qaysi turdagi temperament egalari uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga bu qiyinchiliklarni qanday yengish to'g'risidagi xulosalarni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Temperament, sangvinik, flegmatik, xolerik, melanxolik, interaktive darlar, individual darlar, metodlar.*

**Kirish:** Hozirgi kunda chet tilini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda va bu jarayon murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat bilim olishni, balki shaxsning xulq-atvori, o'ziga xos fazilatlarini va shaxsiy qobiliyatlarini ham talab qiladi. Ushbu jarayonda temperament, ya'ni shaxsning tug'ma psixologik holati muhim rol o'ynaydi. Temperament insonning hayotiy faoliyatiga, jumladan, bilim olish, muloqot qilish va yangi tillarni o'zlashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada temperamentning to'rt turi – xolerik, sangvinik, melanxolik va flegmatiklarning til o'rganish jarayoniga ta'siri batafsil tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Temperament insonning asab tizimining tug'ma barqaror xususiyati bo'lib, bu xatti-harakatlarining individual xususiyatlarini, stressga bo'lgan reaksiyalarini va atrof-muhitga moslashishini aniqlaydi. Bu inson tabiatini ilmiy tushunish va shaxsiyatni rivojlantirish, ta'lim va psixoterapiya kabi amaliy maqsadlar uchun muhim tushunchadir. "Temperament" termini lotincha "temperamentum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "aralashma, kombinatsiya" degan ma'noni anglatadi.<sup>[1]</sup> Temperamentlar haqida ta'limot ilk bora yunon tabibi Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-356 yillar) tomondan yaratilgan bo'lib, uning ta'limotiga asosan "temperament" tushunchasi payday bo'ladi va temperament turlarining nomlari saqlanib qoldi. Bu qadimiy gumoral (subqlikka asoslangan) nazariya bo'lib, u temperament xususiyatlarini organizmdagi suyuqliklar bilan bog'landing. Gippokrat fikricha inson organizmida 4 xil suyuqlik mavjud.

- **Safro** (yunoncha chole)
- **Qon** (lotincha sanguis)
- **Qora o't** (yunoncha melaine chole)
- **Shilimshiq** (yunoncha phlogma)

Har bir suyuqlik o'z xususiyatiga ega. Safro xususiyati – quruqlik. Uning xususiyati organizmda quruqlik saqlash. Qonning xususiyati – namlik, u organizmni

isitadi. Shilimshiqning xususiyati-sovuqlik, u organizmni sovutishga xizmat qiladi. Gippokrat ta'limotiga ko'ra temperamentlar 4 xil ya'ni sangvinik lotincha sanguis qon, xolerik yunonchada chole safro, melanxolik yunonchada melaine chole qora o't flegmatik yunonchada phlogma shilimshiq turlariga bo'lingan.<sup>2</sup>[2] Har bir tushunchaning o'z tarixi bo'lgani kabi temperament tushunchasining ham o'z tarixi bor. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanga holda temperament turlari haqida qisman bolsa ham bilimga ega bo'lishimiz mumkin. Temperament xususiyatlarining psixologik tavsifi nemis faylasufi I. Knat ["Antropologiya", 1789 yil] tomonidan berilgan bo'lib, uning fikrlarida temperament va xarakter aralashib ketishi namoyon bo'ladi. Temperament egalari turli xil xarakterlarga ega bo'lganliklari sababli ularning harakatlari ham turli jarayonlarda bir birini farqlanadi. Insonlarning til o'rganish jarayonida temperamentlarning o'rnini beqiyosdir. Har bir temperament egalarining o'ziga hos qobiliyatlari bor, temperamentlar va til o'rganish jarayonidagi farqlar haqidagi ma'lumotlar quyidagilardir:

- Sangvinik

Ushbu temperament egalarida quvnoqlik va ijtimoiylik yuqori bo'lib ular juda faol bo'ladilar, ammo ularning til o'rganish jarayonidagi kamchiliklari shundaki ular diqqatlarini malum bir predmet ustida uzoq vaqt qarata olmaydilar. Ularning diqqatlar tarqoq bo'ladi. Bu turdagi til o'rganuvchilar uchun samarali usullar interaktiv darslar bo'lib bularga guruh bo'lib ishlash, faol suhbatga kirishish va qiziqarli o'yin va topshiriqlardan kiradi.

- Xolerik

Bu turdagi insonlarda energiya va tezkorlik kuchli bo'ladi, ular juda sabrsiz va emotsional bo'lganliklari sababi ular til o'rganishga juda qiynalishadi. Sabrsizlik tufayli o'z ustida uzoq vaqt ishlamaganliklari tufayli ular talafuz va grammatik qoidalarda qiynalishadi ammo ular sozlarni juda tez yod olishlari mumkin. Xoleriklar uchun qisqa va intensiv darslar munosib bo'lib ularni til o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarini yengishga yordam beradi.

1. Melanxolik

Melanxoliklar chuqur o'ylash va tahliliy qobiliyatlari ularning til o'rganishlarida grammatik qoidalarni o'zlashtirishga va yozish mahoratlarini yaxshilashga yordam beradi. Lekin bu tipdagi insonlar asosan o'zi-o'ziga past baho berish va muloqotdan qochishlarining natijasida ular o'g'izaki nutqda biroz qiynalishadi. Bu jarayonda ular uchun individual darslar va boshqalar tomonidan olingan ijobiy fikrlar muvaffaqiyatning kalitidir.

- Flegmatik

Flegmatik temperamentidagi insonlarda juda tartibli bo'ladilar va shu tufayli ular yangi tilni juda puxta o'zlashtira olishadi. Bu qobiliyat flegmatiklarning asosiy xususiyatlari hisoblanib bu tipdagi insonlar uchun mukamal rejalashtirilgan tartib kerak bo'ladi. Asosan, ushbu turdagi o'rganuvchilarda motivatsiya yetishmovchiligi kuzatiladi, ular uchun rag'batlantiruvchi o'yinlar va tartiblashtirilgan reja asosida o'tilgan darslar eng to'g'ri tanlovdir.

### **Xulosa**

Temperament egalari turli xil bo'lganligi bois ularning til o'rganish jarayonlari ham o'zaro farqlanadi. Har bir turdagi insonlarning o'zlariga xos xususiyatlari ular uchun bu jarayonni bazi qismlarini osonlashtirishi va bazi qismlarini esa ular uchun qiyinlashtirishini ko'rib chiqdik. Ammo har qaysi turdagi o'rganuvchilar uchun to'g'ri yo'lda, ular uchun munosib shaklda dars o'tilsa bu jarayon ancha osonlashadi. Natijada chet tilini o'rganish xech bir inson uchun mashaqatli mashg'ulot bo'lmaydi. Misol qilib oladigan bo'lsak, sangviniklar uchun eng yaxshi usul - bu ularni guruhlar bilan ishlashga undashdir. Xoleriklar uchun esa eng to'g'ri yo'l bu - darslarning aniq va lo'ndaligidir. Melanxoliklarga keldigan bo'lsak til o'rganish uchun individual tarzda o'tilgan darslar ular uchun munosib usuldir. Flegmatiklar bu jarayonda mativatsiyani tez yo'qotishadi shu sababli bu turadi insonlarga rag'batlantirish asosiy o'rin tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.V.Petrovskiy "Umumiy psixologiya", 1992-yil
2. P.V.Ivalov "Umumiy psixologiya", 1972-yil
3. <https://psixologim.uz>
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://arxive.uz>
6. <https://asab.cc>